


IX. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT

2025-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi 776,8 mln AQSH dollorni tashkil etgan, jumladan 323,9 mln AQSH dollarini-eksport, 452,9 mln AQSH dollarini import tashkil etdi. Tashqi savdo aylanmasining saldosi -129,0 mln AQSH dollarini tashkil qildi.

Tashqi savdo aylanmasi dinamikasi
(mln AQSH dollari)




So‘ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishni, eksportni qo‘llab-quvvatlash, import o‘rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishga erishildi. Jumladan, xom ashyo eksportidan, qo‘shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo‘naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

2025- yil yanvar-iyun oylari viloyat tashqi savdo aylanmasida

MDH va boshqa davlatlarning ulushi

(mln AQSH dollar va foizda)




2024- yil yanvar-iyun



■ MDH davlatlar ■ Boshqa davlatlar

2025- yil yanvar-iyun



■ MDH davlatlar ■ Boshqa davlatlar

2025- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda amalga oshirilgan tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 118,8 % ga, MDH davlatlari 112,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, boshqa davlatlar 125,4 % ga ko'paygani kuzatildi.

Jumladan, jami eksport aylanmasi 106,4 % ni va shundan MDH davlatlari 104,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, boshqa davlatlarga 115,5 % ni tashkil etdi.


Jami import aylanmasi 129,6 % ga ko'paygan bo'lib, undan MDH davlatlari 136,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, boshqa davlatlar 127,6 % ga ko'paygan.

MDH va boshqa davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi (mln AQSH dollari)

	yanvar-iyun		O'sish sur'ati, % da
	2024- yil	2025- yil	
Tashqi savdo aylanmasi	653,6	776,8	118,8
<i>shu jumladan:</i>			
MDH davlatlari	330,9	371,9	112,4
Boshqa davlatlar	322,8	404,9	125,4
Eksport	304,3	323,9	106,4
<i>shu jumladan:</i>			
MDH davlatlari	246,1	256,7	104,3
Boshqa davlatlar	58,1	67,2	115,5
Import	349,4	452,9	129,6
<i>shu jumladan:</i>			
MDH davlatlari	84,7	115,2	136,0
Boshqa davlatlar	264,7	337,7	127,6

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda, keyingi o'rinlarda eksport hajmi bo'yicha asosan yengil sanoat tovarlari, qora va rangli metallar, mashina va asbob-uskunalar va kimyo mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda.

Viloyatdagi eksport-import tarkibi

	Umumiy hajm <i>mln AQSH dollar</i>		2024- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan % da
	2024- yil yanvar-iyun	2025- yil yanvar-iyun	
Eksport tarkibi	304,3	323,9	106,4
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	40,0	71,0	177,5
Ichimliklar va tamaki	1,4	1,3	90,9
Xom ashyo yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat hisoblanadi	5,9	3,1	52,7
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	2,7	5,0	188,5
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	1,7	3,7	2,2 m.
Sanoat mahsulotlari	137,8	144,6	104,9
Mashinalar va transport uskunalari	38,9	8,1	20,8
Turli xil tayyor mahsulotlar	68,7	78,6	114,8
Xizmatlar	2,4	2,8	116,7
Boshqalar	4,8	5,6	116,7
Import tarkibi	349,4	452,9	129,6
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	63,3	118,3	186,8
Xom ashyo yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat hisoblanadi	20,9	25,6	122,9
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	5,1	8,9	175,1
Hayvonlar va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar	4,9	6,5	133,5
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	43,1	32,4	75,0
Sanoat mahsulotlari	71,3	112,2	157,3
Mashinalar va transport uskunalari	118,3	113,6	96,0
Turli xil tayyor mahsulotlar	9,4	8,6	91,8
Boshqalar	13,1	26,8	2,0 m.

2025- yil yanvar-iyun oylarida eksport qilingan mahsulotlar va xizmatlar tarkibi bo'yicha tahlil qilinganda, (2024- yilning tegishli davriga nisbatan), Mashinalar va transport uskunalari -79,2 % kamaygani kuzatildi.

**2025-yil yanvar-iyun oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasi
yuqori ulushga ega davlatlar**

(mln AQSH dollari)

Davlatlar nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import
Rossiya Federatsiyasi	261,2	209,8	51,4
Xitoy	205,6	10,4	195,2
Turkiya	39,9	14,4	25,5
Qozog'iston	49,6	18,6	31,0
Hindiston	41,7	0,4	41,3
Qirg'iziston	20,4	8,5	11,9
Germaniya	25,0	8,6	16,4
Belarus	20,1	4,2	15,9
Koreya Respublikasi	11,3	0,2	11,1
Pokiston	10,7	9,3	1,4
Indoneziya	9,0	0,0	9,0
Polsha	4,6	2,9	1,7
Tojikiston	7,8	6,9	0,9
Eron	7,8	4,9	2,9
Afg'oniston	5,4	5,1	0,3
Italiya	6,4	0,2	6,2
Turkmaniston	6,1	3,6	2,5
Malayziya	6,0	0,0	6,0
Ukraina	3,7	2,4	1,3
AQSH	3,1	2,5	0,6

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Namangan viloyati, jahonning 50 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (33,6 %), Xitoy Xalq Respublikasida (26,5 %), Qozog‘istonda (6,4 %), Hindistonda (5,4 %), Turkiyada (5,1 %), Germaniya (3,2 %) va Belarusiya (2,6 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.

2025- yil yanvar-iyun oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida katta ulushga ega bo‘lgan davlatlar

Davlatlar nomi	Viloyat tovar aylanmasida ulushi % da	2024- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan % da
Rossiya Federatsiyasi	33,6	119,2
Xitoy	26,5	135,9
Qozog‘iston	6,4	158,4
Hindiston	5,4	108,6
Turkiya	5,1	99,4
Germaniya	3,2	121,5
Qirg‘iziston	2,6	40,9
Belarus	2,6	148,2
Koreya Respublikasi	1,5	109,0
Pokiston	1,4	4,5 m.
Indoneziya	1,2	3,3 m.
Tojikiston	1,0	133,7
Eron, Islom Respublikasi	1,0	115,2
Italiya	0,8	144,2
Turkmaniston	0,8	113,4

jadval davomi

Davlatlar nomi	Viloyat tovar aylanmasida ulushi % da	2024- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan % da
Malayziya	0,8	86,3
Afg'oniston	0,7	6,7 m.
Polsha	0,6	93,9
Ukraina	0,5	76,6
Aqsh	0,4	5,7 m.
Litva	0,4	113,5
Ozərbayjon	0,3	136,8

2025- yil yanvar-iyun oylarida jami eksport tovarlari hajmida tarmoqlarning ulushi (% da)

■ Oziq-ovqat va tirik hayvonlar

■ Oziq-ovqat bo'lmagan xom ashyo, yoqilg'idan tashqari

■ Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar


■ Ishlab chiqarilgan mahsulotlar

■ Mashina va transport uskunalari

■ Har xil tayyor mahsulotlar

■ Xizmatlar

■ Boshqalar




2025-yil yanvar-iyun oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, amalga oshirilgan eksportning umumiy hajmiga nisbatan sanoat ulushi 44,6 %, har xil tayyor mahsulotlar eksportining ulushi 24,3 % ni hamda oziq ovqat va tirik hayvonlar eksportining ulushi esa 21,9 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar eksporti hajmi 2,8 mln AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,9 % ni tashkil etib, o'tgan-yilning mos davriga nisbatan 116,7 % ga ko'payganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, moliyaviy xizmatlardan iborat.

2025- yil yanvar-iyun oylarida jami eksport tovarlari
hajmi shahar va tumanlar kesmida
(ming AQSH dollari)

	yanvar-iyun		O'sish sur'ati, % da
	2024- yil	2025- yil	
Viloyat jami	304 281,5	323 899,0	106,4
Namangan sh.	87 589,0	83 780,9	95,7
Mingbuloq	2 858,4	7 557,4	2,6 m.
Kosonsoy	41 094,1	51 309,8	124,9
Namangan t.	11 951,0	12 209,6	102,2
Norin	12 079,9	3 427,2	28,4
Pop	36 464,7	5 817,1	16,0
To'raqo'rg'on	51 898,8	77 007,3	148,4
Uychi	22 642,7	27 869,1	123,1
Uchqo'rg'on	9 123,0	16 026,0	175,7
Chortoq	1 022,8	2 390,7	2,3 m.
Chust	16 584,1	25 173,4	151,8
Yangiqo'rg'on	9 613,3	10 032,9	104,4


2025- yil yanvar-iyun oylarida viloyat eksportida
asosiy hamkor davlatlarning ulushi, (% da)



Viloyatdan eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Pokiston, Germaniya va Qirg'iziston davlatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 86,3 % tashkil qiladi.


Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Pokiston, Germaniya va Qirg'iziston davlatlariga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan yengil sanoat mahsulotlari oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

2025- yil yanvar-iyun oylarida jami import tovarlari
hajmi shahar va tumanlar kesmida
(ming AQSH dollari)

	yanvar-iyun		O'sish sur'ati, %da
	2024- yil	2025- yil	
Viloyat jami	349 360,2	452 882,4	129,6
Namangan sh.	189 635,7	178 288,9	94,0
Mingbuloq	1 836,9	6 262,3	3,4 m.
Kosonsoy	12 027,2	17 261,8	143,5
Namangan t.	17 415,3	9 704,1	55,7
Norin	10 510,4	16 565,5	157,6
Pop	8 006,8	69 711,5	8,7 m.
To'raqo'rg'on	30 573,1	31 213,5	102,1
Uychi	17 005,4	18 190,1	107,0
Uchqo'rg'on	3 458,2	3 794,4	109,7
Chortoq	26 773,7	52 338,2	195,5
Chust	24 494,2	43 765,5	178,7
Yangiqo'rg'on	7 623,4	5 786,7	75,9

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2025- yilning yanvar-iyun oylarida amalga oshirilgan importning umumiy hajmiga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari importining ulushi 26,1 % ni, mashina va uskunalar importining ulushi 25,1 % ni, sanoat mahsulotlari importining ulushi 24,8 % ni hamda kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar importining ulushi esa 7,2 % ni tashkil etdi.

2025- yil yanvar-iyun oylarida jami import tovarlari hajmida tarmoqlarning ulushi (% da)



2025- yil yanvar-iyun oylarida viloyat importida asosiy hamkor davlatlar ulishi

2025- yil yanvar-iyun oylarida viloyatga 45 ta xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shundan 7 ta eng yirik bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Hindiston, Qozog'iston, Turkiya, Germaniya va Belarus kabi hamkor davlatlarning jami import hajmi 376,8 mln AQSH dollarga teng. Bu esa umumiy import hajmining 83,0 % ni tashkil qiladi.

